
#ijodiy_uchrashuv She'riyatga oshno qalblar uchun bugun Axborot kutubxona markazida bag'dodlik yosh ijodkor shoira Husnidaxon Madaminova bilan ijodiy uchrashuv o'tkazildi.

Uchrashuvda tuman hokimi o'rinbosari Qahramonjon Mirtazaqulov, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi bosh mutaxassisi Nargiza Zaripova, Yoshlar ishlari agentligi rahbari O'tkirjon Boltaboyev va shoiraning ustozlari va faol kitobxonlar ishtirok etdilar.

Shoira Husnida Madaminovaning bugungi kundagi faoliyati va ijodidan "Sirlashaylik kel yomg'ir" nomli she'rlar to'plami haqida tadbir ishtirokchilariga batafsil ma'lumotlar berildi.

Uchrashuv mehmoni rishtonlik ijodkor Ali Qambar ham o'zining ijodidan namunalar o'qib berdi.

Tadbir so'nggida Husnidaxon Madaminovaga ijodiy parvoz tilab esdalik sovg'alari taqdim etildi.

https://t.me/bagdodim_news

2024-07-02 10:56:56